



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 22 - dekabr

454-11-0-Q/23

Farg‘ona viloyati hokimligi

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 19-dekabrda 20-1-2760-son topshiriq xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 19-dekabrda 20-1-2760-son topshiriq xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yil 7-sentabrdagi 03-07/4043-son xati (O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 31.08.2022-yilda buyrug‘i, ro‘yxat raqami 3383) ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Farg‘ona viloyati hokimligi Tashkilliy-kadrlar guruhi (Muxidinov), Ishlar boshqarmasi (Sarbayev) **joriy yilning 25-dekabr kuniga qadar** Farg‘ona viloyati hokimi o‘rinbosarlari hamda Farg‘ona viloyati hokimligining barcha xodimlari

tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasini to‘ldirib, shuningdek, Farg‘ona viloyati hokimligi (ish beruvchi) va xodimlar o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasiga kiritilgan korrupsiyaga qarshi shartlar bilan tanishilganligi haqida xodimlarning imzolangan ro‘yxati bilan birgalikda Farg‘ona viloyati hokimligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limiga taqdim etilsin.

4. Farg‘ona viloyati hokimligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (F.Nugmanov):

taqdim etilgan ma‘lumotlarni umumlashtirgan holda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha axborotni O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etsin;

2024-yilning 10-yanvar kuniga qadar Farg‘ona viloyati hokimligi va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma‘lumotlarni “E-Anticor.uz” elektron platformasiga kiritilishini ta‘minlasin.

5. Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojiddinov, X.Isaqov, N.Mamajonov, F.Qosimov, A.Tursunov, B.Kuldashev, K.Kavlonova, X.Axmedovlar, Ishlar boshqaruvchisi A.Sarbayev, Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari M.Muxidinov, Axborot-tahlil guruhi rahbari J.Qo‘chqarov, Devonxona bo‘limi mudiri M.Axunjonova:

Farg‘ona viloyati hokimligining rasmiy veb-sayti va ochiq ma‘lumotlar portaliga ijtimoiy ahamiyatga ega molik ma‘lumotlarni belgilangan muddatlarda tasdiqlangan holda Farg‘ona viloyati hokimligi Axborot xizmati hamda Elektron hokimiyatni rivojlantirish markaziga taqdim etib borsin;

shahar va tuman hokimliklari, “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi bilan birgalikda **2024-yilning 1-fevral kuniga qadar** korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Farg‘ona viloyati hokimligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limiga taqdim etsin.

6. Farg‘ona viloyati hokimligi Axborot xizmati rahbari (Djumabayev), shahar va tuman hokimliklari bilan hamkorlikda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son farmoniga asosan ijtimoiy ahamiyatga ega molik ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma‘lumotlar portaliga va o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishi ta‘minlansin hamda ular har chorakda yangilab borilsin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son farmoniga asosan 8 ta ilovadagi baholash mezonlariga asosan ma‘lumotlarni tayyorlash va axborot xizmatlari tomonidan hokimliklarning rasmiy veb-saytiga joylashtirishi ta‘minlansin.

7. Farg‘ona viloyati hokimining 2022-yil 28-martdagi “Farg‘ona viloyati hokimligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, tuman (shahar) hokimliklarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 132-11-0-Q/22-son qarori 2-bandining to‘rtinchi xatboshisidagi “Farg‘ona viloyati hokimligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, tuman (shahar) hokimliklarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti 4-ilovaga” so‘zlari chiqarib tashlansin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Viloyat hokimi



X. Bozarov

Fargʻona viloyat hokimining
2023-yil 22-dekabrda
454-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash USLUBIYOTI

Mazkur Uslubiyot davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy boʻlinmalari, davlat unitar korxonalar va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarning (bundan buyon matnda davlat tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Davlat tashkilotlarining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori boʻlgan lavozimlar roʻyxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori boʻlgan lavozimlar roʻyxati;

korrupsiyaga moyil boʻlgan munosabatlar elektron reestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar — shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi — davlat tashkiloti faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bogʻliq yuzaga kelishi mumkin boʻlgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga masʼul boʻlgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari

amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash — davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

qoldiq xavf-xatar — aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo'linma — davlat tashkilotidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilma;

ishchi guruh — korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mavjud bo'lmagan davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

4. Davlat tashkiloti tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) davlat tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda kamchiliklarning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi mumkin.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash davlat tashkiloti tizimiga kiruvchi barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalarni qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo'linma yoki ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a'zolari davlat tashkilotining tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Davlat tashkilotining birinchi rahbari tomonidan ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda davlat tashkiloti markaziy apparatining maxsus bo'linmasi (ishchi guruh) tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

davlat tashkilotining tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ko'rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

9. Davlat tashkilotining tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo'linmalaridagi maxsus bo'linma (ishchi guruh) quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ishlab chiqish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi

10. Maxsus bo'linma (ishchi guruh) tomonidan davlat tashkiloti faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

11. Davlat tashkiloti faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

12. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

davlat tashkiloti faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;

ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruv materiallari;

odob-axloq komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari;

korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

maxsus bo'linma (ishchi guruh) tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

13. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

davlat tashkiloti faoliyati to'g'risidagi huquqbuzarliklar haqidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma'lumotlar;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar

natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

14. Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) davlat tashkilotining faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

davlat tashkilotining xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;

davlat tashkiloti tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun‘iy to‘siqlarning mavjudligi;

o‘z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma‘lumotlar bazalariga bila turib yolg‘on ma‘lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

15. Davlat tashkiloti faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o‘lchovlarda baholanadi:

past

o‘rta;

yuqori.

16. Maxsus bo‘linma (ishchi guruh) tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va davlat tashkiloti faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta‘minlash, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish;

davlat tashkiloti faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko‘rish;

davlat tashkiloti xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida davlat tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

davlat tashkiloti tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Davlat tashkiloti korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur Uslubiyotning 16-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

19. Davlat tashkiloti markaziy apparatining maxsus bo'linmasi (ishchi guruhi) tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda markaziy apparatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi.

20. Davlat tashkilotining tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo'linmalari tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalari ishlab chiqiladi.

Bunda, mazkur loyihalar davlat tashkiloti markaziy apparatining maxsus bo'linmasiga (ishchi guruhiga) umumlashtirish uchun taqdim qilinadi.

21. Davlat tashkiloti markaziy apparatining maxsus bo'linmasi (ishchi guruhi) tomonidan davlat tashkiloti faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida davlat tashkilotining umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va "E-Anticor.uz" elektron platformasiga **har yili 1-fevralga** qadar kiritiladi.

22. Davlat tashkiloti markaziy apparatining maxsus bo'linmasi (ishchi guruhi) tomonidan "E-Anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi hujjatlar shakllantiriladi:

davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;

davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

5-bob. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestrini shakllantirish va yuritish tartibi

23. Agentlik tomonidan "E-Anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan davlat tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri shakllantiriladi.

24. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri loyihasi Agentlik tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun o'n besh kundan kam bo'lmagan muddatga "E-Anticor.uz" veb-saytiga joylashtiriladi.

25. Agentlik jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha umumlashtirilgan takliflarni muhokama yakunlangan kundan boshlab o'n kun ichida "E-Anticor.uz" elektron platformasi orqali davlat tashkilotiga yuboradi.

26. Davlat tashkiloti markaziy apparatining maxsus bo'linmasi (ishchi guruhi) Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

27. Davlat tashkilotining birinchi rahbari har yili 1-martga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini "E-Anticor.uz" elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

28. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash uslubiyotiga 1-ilova

**Davlat tashkiloti faoliyatining (vazifa va funksiyalarining)
TAVSIFI**

O'rt*	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyahasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past**	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyahasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud emas

*Maxsus bo'linma (ishchi guruh) tomonidan davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning yuqori yoki o'rtada darajada deb baholash davlat tashkiloti rahbari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

**Davlat tashkilotining faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo'lsa, o'sha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past darajada deb baholanadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash uslubiyotiga 3-ilova

“TASDIQLAYMAN”
Davlat tashkilotining rahbari
F.I.O.
“ ___ ” _____ yil

_____ ni faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning
XARITASI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, o'rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o'rta, yuqori)	Mas'ul ijrochilar
	1. Tarkibiy bo'linmaning nomi*						
1.	1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						
	2. Tarkibiy bo'linmaning nomi*						
2.	1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash uslubiyotiga 4-ilova

Davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish

DASTURI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar